



BIOTEXNOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH BO'YICHA TAVSIYALAR



N.Xodjayeva, A.Elmurodov, A. Nurmuhammadov, B.Sabohiddinov

**BIOTEXNOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI MALAKAVIY
AMALIYOTINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH BO'YICHA
TAVSIYALAR**




N.Xodjajeva, A.Elmurodov, A. Nurmuhammadov, B.Sabohiddinov

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA
MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

N.Xodjayeva, A.Elmuurodov, A. Nurmuhammadov, B.Sabohiddinov

**BIOTEXNOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI
TALABALARI MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKIL
ETISH VA NAZORAT QILISH BO'YICHA
TAVSIYALAR**

60710200 - Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun



N.Xodjayeve, A.Elmurodov, A. Nurmuhhammadov, B.Sabohiddinov.
Biotexnologiya ta'lim yo'nalishi talabalari malakaviy amaliyotini tashkil etish va
nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar. Tavsiyanoma – Samarqand: 2026. – 50 bet.

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti 60710200 - Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun mustaqil malakaviy amaliyotini tashkil etish va nazorat qilish
uchun mo'ljallangan

Taqrizchilar:

Z.J.Jo'rayeva - Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand davlat
universiteti "O'simliklar fiziologiyasi
va mikrobiologiya" kafedrasi dotsenti

N.O.Farmonov- SamDVMCHBU,
Veterinariya farmotsevtirasi,
farmakologiya va toksikologiya
kafedrasi mudiri, dotsent

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti markaziy o'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil -sonli qarori bilan
chop etishga tavsiya qilingan.

Octagon print nashroyoti, 2026

KIRISH

Biotexnologiya tirik organizmlar, ularning hujayralari va biologik tizimlaridan foydalangan holda inson ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan fan hisoblanadi. Hozirgi kunda biotexnologiya qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, ekologiya va energetika sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, kasalliklarga chidamli o'simlik navlarini yaratish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishda uning ahamiyati beqiyosdir.

Biotexnologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni egallash muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan malakaviy amaliyot ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u talabalarni real ishlab chiqarish va laboratoriya muhitiga tayyorlaydi.

Malakaviy amaliyot jarayonida talabalar laboratoriya jihozlari bilan ishlash, mikroorganizmlar bilan ishlash usullarini o'rganish, fermentatsiya jarayonlarini kuzatish hamda biotexnologik mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, amaliyot davomida talabalar texnika xavfsizligi va bioxavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishni o'rganadilar. Bu esa ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Malakaviy amaliyotning maqsadi. Malakaviy amaliyotning asosiy maqsadi talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash, zamonaviy biotexnologik jarayonlar bilan tanishtirishdan iborat.

Asosiy vazifalar. Laboratoriya uskunalari bilan ishlashni o'rganish, mikroorganizmlarni ajratish va identifikatsiya qilish, fermentatsiya jarayonlarini kuzatish, biotexnologik mahsulotlar olish texnologiyasini o'zlashtirish va ilmiy hisobot yozish ko'nikmasini rivojlantirish.

Amaliyot turlari. Biotexnologiya yo'nalishida quyidagi malakaviy amaliyot turlari mavjud:

- O'quv amaliyoti
- Ishlab chiqarish amaliyoti
- Bitiruv oldi amaliyoti

Malakaviy amaliyotni 3–4 bosqichlarda ish haqi to'lanadigan amaliyot sifatida (ishlab chiqarish korxonalarida shartnomaga muvofiq) yoki dual ta'lim shaklida amaliyotni rahbarligi 20 % OTMdanda rahbarga, 80 % ishlab chiqarish korxonasidan biriktirilgan rahbarga berish orqali dual amaliyot ta'limini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliyot bazalari. Amaliyot quyidagi tashkilotlarda o'tkazilishi mumkin:

- Ilmiy-tadqiqot institutlari
- Biotexnologiya laboratoriyalari
- Oziq-ovqat sanoati korxonalari
- Farmatsevtika korxonalari
- Qishloq xo'jaligi biotexnologik markazlari

Amaliyot rahbarlari sifatida oliy ta'lim muassasasidan ilmiy rahbar va korxonadan ishlab chiqarish rahbari tayinlanadi.

Ularning vazifalariga amaliyot rejasini ishlab chiqish, talabalarni nazorat qilish va hisobotlarni baholash kiradi.

AMALIYOT RAHBARLARINING VAZIFALARI

Amaliyot rahbari — bu talabalarning malakaviy amaliyot jarayonini tashkil etuvchi, nazorat qiluvchi va yo'naltiruvchi mas'ul shaxs hisoblanadi. U talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, ularni laboratoriya va ishlab chiqarish muhitiga moslashtirish hamda kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Biotexnologiya yo'nalishida amaliyot rahbarining vazifalari ayniqsa muhim bo'lib, u talabalarni mikrobiologiya, in vitro texnologiya, fermentatsiya va molekulyar biologiya jarayonlariga to'g'ri jalb etishi lozim.

Malakaviy amaliyot jarayoni ikki tomonlama boshqaruv asosida olib boriladi:

- oliy ta'lim muassasasidagi ilmiy rahbar
- ishlab chiqarish (amaliyot o'tilayotgan joy)dagi rahbar

Ularning hamkorligi talabaning amaliy va nazariy bilimlarini uyg'unlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasasidagi ilmiy rahbarning vazifalari

Ilmiy rahbar talabaning akademik faoliyatiga javobgar bo'lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

Metodik rahbarlik. Amaliyot dasturini tushuntirish, hisobot tuzilishini ko'rsatish, yozma ishlarni rasmiylashtirish bo'yicha yo'riqnoma berish

Nazariy yo'naltirish. Talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliyot bilan bog'liq ilmiy tushunchalarni izohlash, ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o'rgatish

Hisobotni nazorat qilish. Kundalik va hisobotni tekshirish, xatolarni tuzatish, ilmiy uslubni shakllantirish.

Baholashda ishtirok etish. Yakuniy himoyada qatnashish, talabaning bilimini baholash, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatish

Ishlab chiqarishdagi (amaliyot joyidagi) rahbarning vazifalari

Ishlab chiqarish rahbari talabaning amaliy faoliyatini tashkil etadi va nazorat qiladi.

Amaliyotni tashkil etish. Talabaning ish joyini belgilash, kundalik ish faoliyatini rejalashtirish, laboratoriya yoki ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish.

Amaliy ko'nikmalarni o'rgatish. Laboratoriya jihozlari bilan ishlashni ko'rsatish, tajribalarni bajarish tartibini tushuntirish, texnologik jarayonlarni amalda ko'rsatish.

Xavfsizlikni ta'minlash. Texnika xavfsizligi bo'yicha instruktaaj o'tkazish, bioxavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish, favqulodda holatlarda harakatni tushuntirish

Talabani nazorat qilish. Kundalik faoliyatni kuzatish, topshiriqlar bajarilishini tekshirish, intizomni nazorat qilish.

Yakuniy xulosa berish. Talaba haqida tavsifnoma yozish, amaliy ko'nikmalarni baholash, yakuniy baho bo'yicha tavsiya berish.

Ilmiy rahbar va ishlab chiqarish rahbarining o'zaro farqi

Mezoni	Ilmiy rahbar (oliygoh)	Ishlab chiqarish rahbari
Asosiy vazifa	Nazariy yo'naltirish	Amaliy o'rgatish
Faoliyat turi	Akademik	Amaliy
Nazorat	Hisobot, yozma ish	Kundalik ish jarayoni
Baholash	Himoya jarayoni	Amaliy faoliyat
Rol	O'qituvchi	Ustoz (mentor)

Ilmiy rahbar va ishlab chiqarish rahbarining hamkorligi nazariya va amaliyotni birlashtiradi, talabaning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi va kasbiy tayyorgarlikni oshiradi.

Oliy ta'lim muassasasidagi ilmiy rahbar va ishlab chiqarishdagi rahbar talabaning malakaviy amaliyot jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ilmiy rahbar nazariy bilimlarni mustahkamlasa, ishlab chiqarish rahbari amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Ularning o'zaro hamkorligi natijasida talaba yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi.

IN VITRO LABORATORIYADA MALAKAVIY AMALIYOT

In vitro texnologiya o'simlik hujayra va to'qimalarini sun'iy ozuqa muhitida, steril sharoitda o'stirish va ko'paytirishga asoslangan usuldir. Ushbu texnologiya yordamida qisqa vaqt ichida genetik jihatdan bir xil, sog'lom va viruslardan xoli ko'chatlar olish mumkin. Shu sababli in vitro usuli zamonaviy qishloq xo'jaligi biotexnologiyasida keng qo'llaniladi.

Amaliyotning maqsadi steril sharoitda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'simliklarni mikroko'paytirish texnologiyasini o'rganish, ozuqa muhitlarini tayyorlashni o'zlashtirish, eksplant bilan ishlashni o'rganish, In vitro sharoitida o'simliklarni rivojlantirish.

Talabning amaliy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Ozuqa muhitini tayyorlash
- Sterilizatsiya qilish
- Eksplant ekish
- Natijalarni kuzatish
- Hisobot yozish

Kutilayotgan natijalar:

- In vitro texnologiyasini to'liq tushunadi
- Steril ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi
- Mikroko'paytirish jarayonini mustaqil bajaradi

Malakaviy amaliyot davomida talabalar in vitro laboratoriya ishining barcha bosqichlarini bosqichma-bosqich o'zlashtiradilar.

Birinci bosqich – steril sharoit yaratish. Bu bosqichda laminar boksdan foydalaniladi. Laminar boks ichida havo filtrlanadi va mikroorganizmlar kirib kelishining oldi olinadi. Ish boshlashdan oldin ish yuzasi 70% li etil spirti bilan dezinfeksiya qilinadi.


Ikkinchi bosqich – o'simlik materialini sterilizatsiya qilish. Eksplant sifatida o'simlikning yosh va sog'lom qismlari (barg, kurtak, novda) olinadi. Ular dastlab oqar suvda yuviladi, so'ngra 70% spirt va 0,1–0,2% natriy gipoxlorit eritmasi bilan ishlov beriladi. Bu jarayon tashqi mikroflorani yo'qotish uchun zarur.

Uchinchi bosqich – ozuqa muhitini tayyorlash. Eng ko'p qo'llaniladigan muhit bu Murashige-Skoog (MS) muhiti hisoblanadi. Ushbu muhit tarkibiga azot (NH_4NO_3 , KNO_3), fosfor, kaliy, mikroelementlar (Fe, Mn, Zn), vitaminlar va o'sish regulyatorlari kiradi. Auksinlar (IAA, NAA) ildiz hosil bo'lishini rag'batlantirsa, sitokininlar (BAP, kinetin) novda hosil bo'lishini tezlashtiradi.

To'rtinchi bosqich – eksplantni ekish. Steril sharoitda eksplant kichik bo'laklarga kesilib, ozuqa muhitiga joylashtiriladi. Idishlar yopiladi va maxsus o'stirish xonalariga joylanadi.

Beshinchi bosqich – inkubatsiya. O'simliklar 22–25°C haroratda va 16 soatlik yorug'lik rejimida o'stiriladi. Bu bosqichda kallus hosil bo'lishi yoki to'g'ridan-to'g'ri organogenez kuzatiladi.

Oltinchi bosqich – subkultura. O'sayotgan to'qimalar har 3–4 haftada yangi muhitga ko'chiriladi. Bu o'sishni tezlashtiradi va ko'paytirish samaradorligini oshiradi.



Yettinchi bosqich – aklimatizatsiya. Laboratoriya sharoitida o'sgan o'simliklar tashqi muhitga o'tkaziladi. Dastlab yuqori namlikda issiqxonada saqlanadi, keyin asta-sekin ochiq muhitga moslashtiriladi.

Amaliyot davomida talabalar laminar boks, avtoklav, pH metr va mikroskop bilan ishlashni o'zlashtiradilar. Bu ko'nikmalar kelajakdagi ilmiy va ishlab chiqarish faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega.

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA MALAKAVIY AMALIYOT

Sutni biotexnologik qayta ishlash korxonalarida

Mazkur malakaviy amaliyotning asosiy maqsadi – talabalarni sutni biotexnologik qayta ishlash jarayonlari bilan bevosita tanishtirish, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash hamda ishlab chiqarish sharoitida mikroorganizmlar faoliyatini boshqarish usullarini o'rgatishdan iborat.

Talabalar amaliyot davomida sutni qayta ishlashning barcha bosqichlarini o'rganib, mikrobiologik, biokimyoviy va texnologik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunib yetadilar.

Talabalar quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- Sutni qabul qilish va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash
- Pasterizatsiya jarayonini kuzatish va parametrlarini tahlil qilish
- Starter kulturani tayyorlash va qo'shish texnologiyasini o'rganish
- Fermentatsiya jarayonini nazorat qilish (harorat, vaqt, pH)
- Yogurt, kefir va pishloq ishlab chiqarish texnologiyasini amalda bajarish
- Tayyor mahsulot sifatini baholash
-

Sutni qabul qilish va tahlil qilish (amaliy bosqich)

Amaliyotning birinchi bosqichida talabalar xom sutni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qiladilar:

- Organoleptik tahlil (rang, hid, ta'm)
- Yog' miqdori (Gerber usuli)
- Kislotalilik ($^{\circ}\text{T}$ – Termer darajasi)
- Zichlik va tozaligi


Bu bosqichda talabalar laboratoriya asboblari bilan ishlashni va standartlarga mos baholashni o'rganadilar.

Pasterizatsiya jarayoni. Talabalar sutni $72-85^{\circ}\text{C}$ da qisqa muddat qizdirish orqali pasterizatsiya qilish jarayonida ishtirok etadilar. Bunda ular issiqlik almashinuvi uskunalari bilan ishlash, harorat va vaqtni nazorat qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ishlarini bajaradilar.

Starter kultura bilan ishlash. Talabalar amaliyot davomida sut mahsulotlariga qo'shiladigan mikroorganizmlar bilan ishlashni o'rganadilar. Yogurt ishlab chiqarishda quyidagi bakteriyalar qo'llaniladi:

- *Lactobacillus bulgaricus*
- *Streptococcus thermophilus*

Amaliy jarayonlar: steril sharoitda kulturani tayyorlash, Inokulyatsiya (sutga qo'shish), biologik faoliyatni kuzatish



KOSUN FLUID



Fermentatsiya jarayonini boshqarish. Fermentatsiya $40-45^{\circ}\text{C}$ da 4–6 soat davomida olib boriladi. Talabalar quyidagilarni o'rganadilar:

- pH o'zgarishini kuzatish
- Sutning quyuglanish jarayonini tahlil qilish
- Mikroorganizmlar faolligini baholash

Kefir ishlab chiqarish (murakkab fermentatsiya). Kefir ishlab chiqarishda talabalar bakteriyalar va achitqilar simbiozini o'rganadilar.

Amaliy ko'nikmalar:

- Kefir donalari bilan ishlash
- Ikki xil fermentatsiya (sut kislotali va spirtli) jarayonini kuzatish
- CO_2 hosil bo'lishini aniqlash

Pishloq ishlab chiqarish texnologiyasi. Talabalar pishloq tayyorlashning asosiy bosqichlarini amalda bajaradilar.

Asosiy ferment: renin (chymosin).

Bosqichlar:

1. Sutni tayyorlash
2. Ferment qo'shish
3. Ivish jarayoni
4. Zardob ajratish
5. Presslash
6. Tuzlash va yetiltirish

Amaliy natija: zich, shakllangan pishloq massasi hosil bo'ladi.

Sifat nazorati va baholash. Talabalar tayyor mahsulot sifatini quyidagi usullar bilan baholaydilar:

- Organoleptik baholash
- Fizik-kimyoviy tahlil

- Mikrobiologik tekshiruv

Amaliyot yakunida talabalar quyidagilarni o'z ichiga olgan hisobot tayyorlaydilar:

- Jarayonlar tavsifi
- Olingan natijalar (jadval va grafiklar)
- Tahlil va xulosalar
- Taklif va tavsiyalar

Mazkur malakaviy amaliyot orqali talabalar sutni biotexnologik qayta ishlashning barcha bosqichlarini amalda bajarib, mikroorganizmlar yordamida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur o'zlashtiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Sabzavotlarni biotexnologik qayta ishlash korxinalarida


Sabzavotlarni qayta ishlash biotexnologiyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda mikroorganizmlar faoliyati asosida mahsulotlarni saqlash, sifatini yaxshilash va oziqaviy qiymatini oshirish maqsad qilinadi. Ayniqsa, fermentatsiya jarayonlari sabzavotlarni qayta ishlashda keng qo'llaniladigan biotexnologik usul hisoblanadi.

Fermentatsiyaning biokimyoviy asoslari. Sabzavot fermentatsiyasi asosan sut kislotali big'e'ish jarayoniga asoslangan. Bu jarayonda sabzavot tarkibidagi uglevodlar (glyukoza, fruktoza) sut kislotali bakteriyalar tomonidan parchalanadi.

Asosiy mikroorganizmlar:

- *Lactobacillus plantarum*
- *Leuconostoc mesenteroides*
- *Pediococcus pentosaceus*

Fermentatsiya natijasida quyidagi biokimyoviy jarayon sodir bo'ladi:



Natijada pH 6.0–6.5 dan $\rightarrow$ 3.5–4.0 gacha tushadi, zararli mikroorganizmlar rivojlanishi to'xtaydi, mahsulot saqlanish muddati uzayadi.

Fermentatsiya jarayonining texnologik bosqichlari quyidagilardan iborat: Xom ashyoni tayyorlash. Sabzavotlar (karam, bodring, sabzi) yuviladi va saralanadi. Shikastlangan qismlar ajratib olinadi.

Tuz eritmasi tayyorlash. Odatda 2–3% NaCl eritmasi ishlatiladi. Tuz osmotik bosimni oshiradi, zararli mikroflorani bostiradi, foydali bakteriyalarni rag'batlantiradi.

Anaerob sharoit yaratish. Fermentatsiya kislorodsiz muhitda yaxshi kechadi. Shu sababli idishlar zich yopiladi.

Inkubatsiya. Harorat: 18–22°C , Davomiylik: 5–10 kun. Bu bosqichda bakteriyalar faol ko‘payadi va sut kislotasi hosil qiladi.

Biotexnologik amaliyotda fermentatsiya jarayoni nazorat qilinadi: pH o‘lchash (pH metr yordamida), titrlanuvchi kislotalilik aniqlash, koloniya sonini hisoblash (CFU/ml) aniqlanadi.

Zamonaviy biotexnologiyada fermentatsiyaga qo‘shimcha ravishda starter kulturadan foydalanish keng tarqalgan. Unda jarayon tezlashadi, mahsulot sifati barqaror bo‘ladi, xavfsizlik oshadi. Shuningdek, bakteriyalar ishlab chiqaradigan bakteriosinlar va organik kislotalar zararli mikroorganizmlarni yo‘q qiladi.

Talabalar amaliyot davomida sabzavotlarni fermentatsiya qilish, pH o‘lchash, mikroorganizmlarni ekish, koloniyalarni hisoblash, natijalarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar.

Sabzavotlarni qayta ishlash biotexnologik jarayon bo‘lib, unda mikroorganizmlar asosiy rol o‘ynaydi. Fermentatsiya orqali mahsulotning saqlanish muddati uzayadi, oziqaviy qiymati saqlanadi va xavfsizligi ta‘minlanadi.

Fermentatsiya sabzavotlarni qayta ishlashning eng qadimgi va samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon tabiiy mikroorganizmlar, asosan sut kislotali bakteriyalar (*Lactobacillus*, *Leuconostoc*) ishtirokida amalga oshadi.

Fermentatsiya jarayonida sabzavot tarkibidagi shakarlar mikroorganizmlar tomonidan parchalanib, sut kislotasiga aylanadi. Natijada muhitning kislotaliligi oshadi (pH pasayadi), bu esa zararli mikroorganizmlarning rivojlanishini to‘xtatadi. Masalan karam tuzlash, bodring tuzlash, kimchi tayyorlash.

Fermentatsiya jarayoniga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar:

- tuz konsentratsiyasi (odatda 2–3%)
- harorat (18–22°C optimal)
- anaerob muhit (kislorodsiz sharoit)

Fermentatsiyaning afzalligi shundaki, u mahsulotda vitaminlar (ayniqsa C vitamini) saqlanishiga yordam beradi hamda probiotik xususiyatlarni oshiradi.




Konservatsiya (issiqlik bilan qayta ishlash). Konservatsiya — sabzavotlarni yuqori harorat yordamida qayta ishlash usuli bo'lib, unda mikroorganizmlar yo'q qilinadi va mahsulot uzoq muddat saqlanishi ta'minlanadi.

Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Xom ashyoni yuvish va saralash
2. Kesish va tayyorlash
3. Bankalarga joylash
4. Marinad yoki tuz eritmasi qo'shish
5. Sterilizatsiya (100°C yoki undan yuqori)
6. Germetik yopish

Konservatsiya natijasida mahsulotlar (pomidor, bodring, baqlajon va boshqalar) bir necha oy, hatto yillar davomida saqlanishi mumkin.



Biokonservatsiya (zamonaviy biotexnologik usul). Biokonservatsiya — sabzavotlarni saqlashda foydali mikroorganizmlar yoki ularning metabolitlaridan foydalanishga asoslangan zamonaviy usuldir.


Bu usulda sut kislotali bakteriyalar, bakteriosinlar (antimikrob moddalar), qo'llaniladi.

Biokonservatsiyaning afzalliklari:

- kimyoviy konservantlar ishlatilmaydi
- mahsulot ekologik toza bo'ladi
- xavfsizlik darajasi yuqori
- Sabzavotlarni qayta ishlash ko'p qirrali jarayon bo'lib, u faqat tuzlash bilan cheklanmaydi. Zamonaviy biotexnologiyada fermentatsiya, konservatsiya, quritish, muzlatish va biokonservatsiya usullari keng qo'llaniladi.
- Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lib, ular mahsulot turiga, saqlash muddatiga va texnologik sharoitlarga qarab tanlanadi. Biotexnologiya

rivojlanishi bilan bu usullar yanada takomillashib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

- Biotexnologiya yo'nalishi talabalarining amaliyotida ushbu jarayonlarni o'rganish ularning ilmiy va amaliy tayyorgarligini oshiradi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim asos yaratadi.



FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA MALAKAVIY AMALIYOT O'TASH

Farmatsevtika sanoati biotexnologiyaning eng rivojlangan va yuqori talab qilinadigan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada mikroorganizmlar, hujayra kulturalari va biologik faol moddalar asosida dori vositalari ishlab chiqariladi. Shu sababli biotexnologiya yo'nalishi talabalarining farmatsevtika korxonalarida malakaviy amaliyot o'tashi ularning kasbiy tayyorgarligida muhim bosqich hisoblanadi.

Farmatsevtika korxonalarida amaliyot o'tashning asosiy maqsadi — talabalarni dori vositalari ishlab chiqarish texnologiyasi, sifat nazorati va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishtirishdir.

Shuningdek, talabalar biologik faol moddalar olish jarayonlarini, steril ishlab chiqarish tizimlarini, farmatsevtik standartlar (GMP) talablarini amaliy jihatdan o'rganadilar.

Farmatsevtika ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari

Xom ashyo tayyorlash. Farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo mikroorganizmlar (bakteriyalar, zamburug'lar), o'simlik ekstraktlari, kimyoviy moddalar.



Xom ashyo sifat nazoratidan o'tkaziladi va standartlarga mosligi tekshiriladi.

Biotechnologik sintez. Ko'plab dori vositalari mikroorganizmlar yordamida olinadi. Masalan antibiotiklar (*Penicillium*, *Streptomyces*), vitaminlar, fermentlar.

Fermentatsiya jarayoni maxsus bioreaktorlarda amalga oshiriladi. Bu yerda harorat, pH va kislorod darajasi qat'iy nazorat qilinadi.

Ajratish va tozalash (purifikatsiya). Fermentatsiya natijasida olingan mahsulot tozalash bosqichidan o'tadi:

- filtratsiya
- sentrifugatsiya
- xromatografiya

Bu jarayon dori moddasining sof holatda olinishi uchun zarur.

Dori shaklini tayyorlash. Faol modda turli shakllarga keltiriladi. Masalan tabletkalar, kapsulalar, eritma yoki in'yeksiya preparatlari. Har bir shakl uchun alohida texnologik talablar mavjud.

Qadoqlash va saqlash. Tayyor mahsulot steril sharoitda qadoqlanadi. Qadoqlash materiallari mahsulot sifatiga ta'sir qilmasligi kerak.

Farmatsevtika korxonalarida sifat nazorati muhim ahamiyatga ega. Sifat nazorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mikrobiologik tozaligini tekshirish
- kimyoviy tarkibini aniqlash
- fizik xususiyatlarini baholash

QA (Quality Assurance) esa ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari standartlarga mosligini ta'minlaydi.

Farmatsevtika ishlab chiqarishda GMP (Good Manufacturing Practice) talablari majburiy hisoblanadi.

Asosiy talablar:

- steril ishlab chiqarish sharoiti

- xodimlarning gigiyenasi
- jihozlarning tozaligi
- hujjatlashtirish

Talabalar amaliyot davomida ushbu standartlar bilan yaqindan tanishadilar.


Amaliyot davomida talabalar laboratoriya va ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatadi, namunalar bilan ishlaydi, sifat nazorati jarayonida ishtirok etadi va hujjatlar bilan tanishadilar.

Amaliyot yakunida talaba farmatsevtik ishlab chiqarish bosqichlarini tushunadi, GMP talablarini biladi, sifat nazorati usullarini o'zlashtiradi, biotexnologik mahsulot ishlab chiqarish haqida tasavvurga ega bo'ladi

ILMIY-TADQIQOT INSTITUTLARIDA MALAKAVIY AMALIYOT

Ilmiy-tadqiqot institutlarida amaliyot biotexnologiya yo'nalishidagi talabalar uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, genomika institutlari zamonaviy biologiya fanining markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u genetik axborotni o'rganish, DNK tuzilishini tahlil qilish va genlar funksiyasini aniqlash bilan shug'ullanadi.

Genomika sohasida olib boriladigan tadqiqotlar qishloq xo'jaligida (nav yaratish), tibbiyotda (genetik kasalliklar), farmatsevtikada (dori ishlab chiqish), keng qo'llaniladi.



DNK bilan ishlash bosqichlari:

DNK ekstraksiyasi (ajratib olish). DNK ajratish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Hujayra lizisi (parchalanishi)

2. Oqsillarni ajratish
3. DNKni tozalash
4. DNKni eritmaga olish


Natijada sof DNK olinadi va keyingi tahlillar uchun ishlatiladi.

PCR – DNKni ko'paytirish texnologiyasi. PCR (Polimeraza zanjir reaksiyasi) — DNK fragmentlarini millionlab nusxaga ko'paytirish usuli.

Bosqichlar:

1. Denaturatsiya ($94-95^{\circ}\text{C}$)
2. Annealing ($50-65^{\circ}\text{C}$)
3. Elongatsiya (72°C)

Bu jarayon 25–35 sikl davomida takrorlanadi.



Elektroforez orqali DNKni tahlil qilish. Elektroforez yordamida DNK fragmentlari uzunligiga qarab ajratiladi.

Natija: chiziqlar (bandlar) ko'rinishida chiqadi, genetik farqlar aniqlanadi

Sekvenslash va genom tahlili. Zamonaviy genomika texnologiyalarida DNK ketma-ketligi aniqlanadi.

Bu orqali genlarning joylashuvi, mutatsiyalar, genetik farqlar aniqlanadi. **Bioinformatika va kompyuter tahlili.** Genomika faqat laboratoriya emas — kompyuter ham muhim. Talabalar DNK ketma-ketliklarini tahlil qiladi, BLAST dasturidan foydalanadi, genlarni solishtiradi

Amaliyot davrida ishlatiladigan laboratoriya jihozlari quyidagilar:

- PCR apparati
- sentrifuga
- elektroforez kamerasi
- mikropipetka
- spektrofotometr



Sekvenslash va genom tahlili

Amaliyot davomida talabalar bajaradigan ishlar - DNK ajratish, PCR qo'yish, elektroforez qilish va natijalarni tahlil qilish

Genomika institutlarida amaliyot talabalarini zamonaviy biotexnologiyani eng ilg'or usullari bilan tanishtiradi. Ushbu tajriba ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi va mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini shakllantiradi.

QISHLOQ XO'JALIGI BIOTEXNOLOGIK MARKAZLARIDA MALAKAVIY AMALIYOT O'TASH

Qishloq xo'jaligi biotexnologik markazlari zamonaviy biologiya va agrar sohaning muhim ilmiy-amaliy bazasi hisoblanadi. Ushbu markazlarda o'simliklar seleksiyasi, mikroo'paytirish, bioo'g'itlar ishlab chiqarish hamda genetik tadqiqotlar olib boriladi. Biotexnologiya yo'nalishi talabalarining bunday

markazlarda malakaviy amaliyot o'tashi ularning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi biotexnologik markazlarida amaliyot o'tashning asosiy maqsadi o'simlik biotexnologiyasi asoslarini amalda o'rganish, yuqori hosildor va kasalliklarga chidamli navlar yaratish usullarini tushunish, mikroorganizmlar yordamida biologik preparatlar olish jarayonini o'zlashtirishdan iborat.

Asosiy faoliyat yo'nalishlari

Seleksiya va genetik tadqiqotlar. Biotexnologik markazlarda yangi o'simlik navlarini yaratish ustida ish olib boriladi. Bu jarayonda genetik tanlash (seleksiya), mutatsiya usullari, molekulyar markerlar qo'llaniladi. Talabalar genetik tahlil usullari bilan tanishadilar.

Bioo'g'itlar va biopreparatlar ishlab chiqarish. Mikroorganizmlar yordamida azot fiksatsiyalovchi bakteriyalar, fosfor eruvchan bakteriyalar asosida bioo'g'itlar ishlab chiqariladi. Bu preparatlar tuproq unumdorligini oshiradi, kimyoviy o'g'itlarga ehtiyojni kamaytiradi.

O'simlik kasalliklariga qarshi biologik kurash. Biotexnologiya yordamida foydali mikroorganizmlar, antagonist bakteriyalar ishlatilib, o'simlik kasalliklari nazorat qilinadi.

Amaliyot davomida talabalar:

- laboratoriyada steril ishlash
- issiqxonada o'simlik parvarishi
- aklimatizatsiya jarayonini kuzatish

kabi ishlarni bajaradilar.

Asosiy jihozlar:

- laminar boks
- avtoklav
- termostat
- mikroskop
- issiqxona tizimlari


Talabalar steril ishlash qoidalariga rioya qiladi, mikroorganizmlar bilan ehtiyotkor ishlaydi, ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Talabalar bajaradigan amaliy ishlarga o'simlik to'qimalari bilan ishlash, mikroorganizmlarni o'stirish, bioo'g'it tayyorlash va natijalarni tahlil qilish kiradi.

Amaliyot yakunida talaba:

- o'simlik biotexnologiyasini tushunadi
- in vitro usullarni biladi
- bioo'g'itlar ahamiyatini anglaydi

Qishloq xo'jaligi biotexnologik markazlarida o'tiladigan amaliyot talabalarni zamonaviy agrar biotexnologiya bilan tanishtiradi. Ushbu tajriba ularning kasbiy malakasini oshiradi va kelajakda samarali mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.



MIKROBIOLOGIK NAZORAT VA TAHLIL USULLARI

Biotexnologik jarayonlarda mikrobiologik nazorat mahsulot sifatini ta'minlash, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega. Mikroorganizmlar faoliyati ko'plab texnologik jarayonlarning asosini tashkil etgani sababli, ularning miqdori, turi va faolligini nazorat qilish zarur hisoblanadi. Ayniqsa oziq-ovqat, farmatsevtika va qishloq xo'jaligi biotexnologiyasida mikrobiologik tahlillar ajralmas bosqichdir.

Mikrobiologik nazoratning asosiy bosqichlari

Mikrobiologik nazorat bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, har biri o'ziga xos metodikaga ega:

Namuna olish. Namuna olish — tahlilning eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, natijaning aniqligi aynan shu bosqichga bog'liq. Namuna steril sharoitda olinadi va tashqi muhitdan ifloslanishning oldi olinadi. Namuna mahsulotdan, xom ashyodan, suv yoki havo muhitidan olinishi mumkin.

Ekish (kultivatsiya). Olingan namuna maxsus ozuqa muhitlariga ekiladi. Ozuqa muhitlari turiga qarab, umumiy (universal) muhitlar, selektiv muhitlar va differensial muhitlar bo'lishi mumkin.

Ekish usullari:

- yoyma usul (spread plate)
- chuqur ekish (pour plate)
- chiziqli ekish (streak method)

Inkubatsiya. Ekilgan namunalar ma'lum haroratda (odatda 28–37°C) inkubatsiya qilinadi. Bu bosqichda mikroorganizmlar ko'payib, koloniyalar hosil qiladi.

Koloniyalarni hisoblash. Hosil bo'lgan koloniyalar soni hisoblanadi va natija quyidagicha ifodalanadi: CFU/ml (Colony Forming Units).

Bu ko'rsatkich mikroorganizmlar sonini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi.

Identifikatsiya. Mikroorganizmlarni aniqlash quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- morfologik (shakli, o'lchami)
- biokimyoviy testlar
- molekulyar usullar

Mikroskopik tahlil usullari

Mikroskopiya mikroorganizmlarni tez aniqlashning asosiy usullaridan biridir.

Gram bo'yash usuli. Bakteriyalar ikki guruhga ajratiladi: Gram-musbat (qalin hujayra devori), Gram-manfiy (ingichka devor).

Bu usul diagnostikada keng qo'llaniladi.

PCR (Polimeraza zanjir reaksiyasi). PCR yordamida mikroorganizmlarning DNKsi aniqlanadi va ko'paytiriladi.

Uning afzalliklari yuqori aniqlik, tezkor natija, kam miqdordagi namunada ham ishlashida.

Spektrofotometriya. Bu usul mikroorganizmlar o'sishini optik zichlik (OD) orqali baholaydi. Masalan OD600 qiymati hujayra konsentratsiyasini ko'rsatadi

ELISA va immunologik usullar. Antigen-antitelo reaksiyasi asosida mikroorganizmlar aniqlanadi.

Mikrobiologik tahlillar quyidagilar uchun muhim:

- mahsulot xavfsizligini ta'minlash
- patogen mikroorganizmlarni aniqlash
- fermentatsiya jarayonini nazorat qilish
- sanitariya holatini baholash

Malakaviy amaliyot davomida talabalar steril sharoitda ishlash, ozuqa muhit tayyorlash, mikroorganizmlarni ekish, koloniyalarni hisoblash, mikroskop bilan ishlash, Gram bo'yash, PCR asoslari bilan tanishish kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Mikrobiologik nazorat biotexnologik jarayonlarning ajralmas qismi bo'lib, u mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy usullar yordamida mikroorganizmlar tez va aniq aniqlanadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Talabalar uchun ushbu jarayonlarni amaliyotda o'rganish ularning professional tayyorgarligini mustahkamlaydi.

BIOXAVFSIZLIK ASOSLARI

Bioxavfsizlik — bu biologik omillar (mikroorganizmlar, hujayra kulturalari, genetik materiallar) bilan ishlash jarayonida inson salomatligi, atrof-muhit va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Biotexnologiya, mikrobiologiya va farmatsevtika sohalarida bioxavfsizlik qoidalarga rioya qilish laboratoriya faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mikroorganizmlarning xavflilik darajalari (BSL tizimi). Laboratoriyalarda mikroorganizmlar xavflilik darajasiga qarab 4 guruhga bo'linadi:

BSL-1 (past xavf darajasi). Inson uchun deyarli xavfsiz mikroorganizmlar. Odatda o'quv laboratoriyalarida qo'llaniladi. Masalan *E. coli* (patogen bo'lmagan shtammlari).

BSL-2 (o'rta xavf darajasi). Yengil kasallik chaqirishi mumkin bo'lgan mikroorganizmlar. Bular maxsus ehtiyot choralarini talab qiladi. Masalan *Staphylococcus aureus*.

BSL-3 (yuqori xavf darajasi). Og'ir kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlar. Ular maxsus yopiq laboratoriyalar talab etiladi, chunki havo orqali yuqishi mumkin.

BSL-4 (eng yuqori xavf darajasi). Juda xavfli va o'limga olib keluvchi mikroorganizmlar. bunday ishlar maxsus himoyalangan laboratoriyalarda o'tkaziladi. Masalan Ebola virusi.

Talabalar odatda BSL-1 va BSL-2 darajadagi laboratoriyalarda ishlaydilar.

Bioxavfsizlik quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- **Aseptika va antiseptika** — mikroorganizmlar bilan ifloslanishni oldini olish
- **Kontaminatsiyani nazorat qilish** — begona mikroblarning tushishini oldini olish
- **Shaxsiy himoya** — laboratoriya xodimlarini himoya qilish
- **Atrof-muhitni muhofaza qilish** — chiqindilarni to'g'ri yo'q qilish.
-

Laboratoriyada bioxavfsizlik qoidalari

Laboratoriyada ishlashda quyidagi qoidalar qat'iy rioya qilinadi:

- maxsus laboratoriya kiyimida (xalat, qo'lqop, niqob) ishlash
- ish boshlashdan oldin va keyin qo'llarni dezinfeksiya qilish
- laminar boksda steril ishlash
- og'iz bilan pipetka ishlatmaslik

- biologik materiallarni ehtiyotkorlik bilan tashish

